

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**“O‘ZBEKISTONDA TARIX VA ETNOLOGIYA ILMLARINING
RIVOJLANISH TAMOYILLARI VA DOLZARB MASALALARI”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-nazariy anjumani

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI



Termiz – 2026

“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami—
T. : “TerDU NMM” nashriyoti”, 2026. — 966 b.

Muharrir:
S.Tursunov

Ma’sul muharrirlar:
T.Pardayev, X.Xolmuminov, G.Axmedova, M.Raimov

© **“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami
© “TerDU NMM” nashriyot, 2026-yil.

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI
MOLIYA TIZIMI: DAROMADLAR MANBAYI VA SARFLANISHI**

**IRISQULOV BEKZOD
JAXONGIROVICH**

*Samarqand pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Buxoro amirligi moliya tizimi, budjeti va uning shakllanish manbalari hamda taqsimoti manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Buxoro amirligi moliya tizimining Turkiston general gubernatorligi budjetidan farqli jihatlari yoritilgan. Amirlikdagi saroy xarajatlari va ijtimoiy-madaniy sohaga ajratilgan mablag'larning sarflanishi ochib berilgan.

В данной статье на основе источников анализируются финансовая система, бюджет, источники его формирования и распределения в Бухарском эмирате. Также освещаются отличительные особенности финансовой системы Бухарского эмирата от бюджета Туркестанского генерал-губернаторства. Раскрываются расходы двора эмира и распределение средств на социально-культурную сферу.

This article analyzes the financial system, budget, and sources of its formation and distribution in the Emirate of Bukhara based on primary sources. It also highlights the distinctive features of the Bukhara Emirate's financial system compared to the budget of the Turkestan Governor-Generalship. The article explores court expenses and the allocation of funds for social and cultural sectors.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords

Financial system, budget, court expenses, charitable societies, treasury, state expenditures.

Финансовая система, бюджет, дворцовые расходы, благотворительные общества, казна, государственные расходы.

Financial system, budget, court expenses, charitable societies, treasury, state expenditures.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi natijasida keyinchalik Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan protektorat o'rnatildi. Rossiya bu xonliklarda o'z manfaatlariga mos bo'lgan, uning O'rta Osiyodagi hukmronligini mustahkamlashga yordam bergan va xonliklarning tashqi xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan davlat boshqaruv apparatining eski shaklini saqlab qoldi.

Xonliklardagi davlat tuzilmalarining o'ziga xos jihati shunday ediki, ular boshqa vazifalar bilan bir qatorda iqtisodiy majburiyatlarni ham bajargan. Bu sharq dehqonchiligidan asosi bo'lgan irrigatsiya tizimiga davlat aralashuvini talab qilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan. Boshqaruvni amalga oshirishda davlat moliyasi muhim rol o'ynagan, kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va davlat rolining kuchayishi natijasida ma'lum pul munosabatlari tizimi sifatida shakllana

boshlagan. Davlat xarajatlarining yo'nalishi va xarakterini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ularda davlatning yuqori tabaqasi manfaatlariga to'la mos keladigan moliyaviy siyosat shakllangan.

Buxoro amirligi xarajatlarining qancha bo'lganligi haqida rasmiy ma'lumotlar deyarli yo'q. Amir yillik daromadning umumiy miqdorigina emas, balki harajatlarini ham sir tutgan. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda amirlik xarajatlari haqida bir-biriga qarama-qarshi va ko'pincha rasmiy hisobotlarda ham buzib ko'rsatilgan taxminiy raqamlar mavjud. Gubarevich-Radobilskiyning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 90-yillarida Buxoro amirligining daromad va xarajatlari 7 million rubl miqdorida bo'lib, shundan 4 million rubl xazinaga tushgan.[1] Logofetning ma'lumotlariga ko'ra, amirlikning daromadi 18 million rublni tashkil etib, Rossiya Tashqi ishlar vazirligining Logofet qaydlarida berilgan rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, xarajatlari 2,5 million

rublni tashkil etgan.[2] Sadriddin Ayniy ma'lumotlariga ko'ra, 1912-yilda amirlikning daromad va xarajatlari 30 million rublni tashkil etgan.[3] 1909-yilda Rossiya siyosiy agentligi tomonidan shaxsiy yo'l bilan maxfiy tarzda olingan ma'lumotlarga ko'ra, butun amirlikdan davlat xazinasiga 7349,5 ming rubl tushgan.[4] Buxoro amirligi qo'shbegisining ma'lumotlariga ko'ra, jami daromad 3345 ming rublni tashkil qilgan. Shu bilan birga, qo'shbegi "daromad ayrim yillarda ko'p, boshqa yillarda esa bundan kam bo'lganligini ta'kidlaydi.[5]

Bir-birini to'ldiruvchi ilmiy adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarni tanqidiy o'rganish Buxoro amirligi davlat daromadlari va xarajatlarning maksimal va minimal chegaralarini taxminan aniqlashtirish imkonini beradi.

Buxoro amirligining bir necha yillar davomidagi xarajatlar dinamikasini tahlil qilib, amirlikning quyidagi har yillik maksimal va minimal xarajatlar ro'yxatini shakllantirildi:

-Amirning shaxsiy xarajatlari (sovg'alar va xayr-ehsonlarni hisobga olgan holda) 2 dan 5 million rublgacha.

-Qo'shin ta'minoti xarajatlari 2 dan 2,5 million rublgacha.

-Din va ulamolalar uchun xarajatlar 100 mingdan 1 million rublgacha.

-Boshqa xarajatlar 100 dan 300 ming rublgacha.

Saroyini ta'minlash uchun juda katta mablag' sarflagan amir va uning amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, madaniy o'zgarishlar va aholi hayotini yaxshilash masalalari bilan yetarlicha shug'ullanilmagan.

Amirlikda barcha ishlar qo'shbegi va amaldorlarning ixtiyoriga berib qo'yilgan, amirning o'zi poytaxtda deyarli bo'lmaydi, qabulga kelganlar bilan faqat diniy masalalarda, unda ham Buxorodan Sankt-Peterburgga yoki Yaltaga jo'nab ketgunga qadar suhbat qiladi xolos".[6]

Markaziy Osiyo xonliklari hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi moliyaviy xarajatlarning oshishiga olib keldi. Shuningdek, hukmdorlar tomonidan milliy va yevropa uslubida saroylar qurilishi katta mablag'larni talab qilardi.

Rossiya imperiyasiga keyin o'nlab yillar davomida Buxoro amirligi va Xiva xonligi vakillarining sovg'a-salomlar taqdim etishlari

milliy odatning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinsa-da, aslida ularning Rossiya imperiyasiga bo'ysunishini ifodalagan. Mahalliy amaldorlar tomonidan sovg'alar asosan, imperator, Turkiston general-gubernatori, yuqori martabali amaldorlar va boshqalarga berilgan. Bu haqda amir Abdulahadning 1892-1893-yillarda Sankt-Peterburgga qilgan safari asosida yozilgan kundaligidan ham qator ma'lumotlarni uchratish mumkin. Kundalikda Chorjo'yda istiqomat qilib turgan Rossiya amaldorlaridan yigirma yetti kishiga tilla va kumush nishonlar hamda shuncha medal taqdim qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.[7] Umuman olganda, asarning ko'plab sahifalarida bunday ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Bu esa oxir-oqibat rus harbiylari va yuqori martabali amaldorlari sovg'alarni shaxsiy rag'batlantirish sifatida undan bosh tortmasligiga, sovg'alar evaziga rus ma'muriyati tomonidan manfaatli xizmatlar ko'rsatilishiga, Buxoro va Xivaning turli siyosiy-iqtisodiy ishlariga yon berish va sukut saqlashlariga olib kelgan. Buxoro va Xiva hukmdorlarining hadyalar uslubidan foydalanishi katta davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni (masalan, 1890-yillarda ko'tarilgan xonliklar moliyasi ustidan nazorat o'rnatish) kun tartibidan olib tashladi.

Buxoro amirligida sovg'aning xayr-ehson turi keng tarqalgandi. Amirga Turkistonning rus shaharlaridan turli ehtiyojlarga, o'quv yurtlari va sog'liqni saqlash uchun xayr-ehson qilish taklifi bilan ko'plab xatlar bilan murojaat qilishgan.

Qolaversa, Buxoro amiri islom dini rahnamosi, shariat qonunlari va musulmonlar e'tiqodi himoyachisi sifatida shuhrat qozonishga urinib, Yaqin va o'rta sharqdagi bir qator davlatlarga xayr-ehsonlar qilib turgan. Masalan, 1901-yilda Buxoro amiri va saroy amaldorlari Istanbulga 160 ming rubl xayriya yuborganlar. Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi vositachiligida amir temir yo'l qurilishi uchun ham mablag' ajratgan.[8]

Buxoro amiri nafaqat xayr-ehson ishlarida balki xorijiy Sharq davlatlari, birinchi navbatda Rossiya imperiyasining harbiy xarajatlari ham ishtirok eta boshlaydi. 1905-yilgi inqilob bayrami kuni munosabati bilan amir Abdulahad Rossiya imperatori Nikolay II ga o'z nomida harbiy kema qurilishi uchun 1 million rubl hadya qilgan. Bunday xayriyalar ayniqsa, Birinchi

jahon urushi davrida ko'paygan. Buxorodagi Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 1910-yildan 1917-yilgacha amir Sayid Olimxon urush bilan bog'liq turli xarajatlar uchun 296524 rubl bergan.[9] 1916-yil 2-sentyabrda Buxoro amiri imperator saroyida o'tkazilgan ko'rgazma vaqtida Nikolay II ga urush ehtiyojlari uchun 1 mln. rubl bergan.[10]

Shunday qilib, sovg'a ko'rinishidagi xarajatlar vaqt o'tishi bilan korruptsiya shakliga ega bo'lgan. Keyinchalik bu Buxoro amirining imperiya harbiy va ma'muriy xarajatlari yashirin ishtirok etish shakliga aylanib borgan.

Bartold ma'lumotlariga ko'ra, rus hokimiyati 1880-yildayoq sovg'a-salomlarni taqiqlab qo'ygan va Rossiya imperiyasi harbiy vaziri Turkiston general-gubernatorlarining e'tiborini sovg'alarning rus ma'murlari sha'niga to'g'ri kelmasligiga qaratgan.[11] Kamdan-kam rus ma'murlari sovg'a olishni rad etishgan. Hattoki, sovg'a va ehsonlarni harbiy vazir Kuropatkin, graf Palenning taftish komissiyasi ham rad etmagan. Ammo, bu kabi eng keskin cheklovlar ham korruptsiya holatlarni kamaytirishga yordam bermagan.

Ma'muriy boshqaruv xarajatlarning katta qismi tashqi aloqalar bilan bog'liq edi. Xonliklarning boshqa davlatlar bilan tashqi aloqalari Rossiya Tashqi ishlar vazirligi orqali amalga oshirilgan. Shuning uchun imperiyaning Buxoro shahridagi diplomatik vakolatxonasi xizmatchilari xazina hisobidan maosh bilan ta'minlangan.

Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi ham amirlik xazinasidan maosh olgan. Xolbuki, siyosiy agentlikning barcha xarajatlari Rossiya Tashqi ishlar vazirligi hisob-kitob daftariga kiritilgan edi. Siyosiy agentlik amir faoliyatini nazorat qilish bilan birga, bu yerdagi rusiyazon kelgindi aholining manfaatlarini himoya qilib, Rossiya-Buxoro ishbilarmon doiralari o'rtasida vositachilik qilgan.

Buxoro amirligi xazinasidan 1910-1917-yillarda siyosiy agentlikka jami 627,3 ming rubl yoki yiliga 78,4 ming rubl mablag' ajratilgan. Bu mablag'lar nafaqat agentlik xodimlari maoshlarini to'lashga, balki Buxoro va Qarshidagi militsiya bo'limlari, hattoki Yangi Buxorodagi qamoqxonani ta'mirlashga ham sarflangan. Militsiya xarajatlarning oshishi XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida dehqonlarga

nisbatan og'ir majburiyatlarning yanada kuchayishi munosabati bilan bir qator hududlarda ommaviy tartibsizliklar tez-tez uchraganligi bilan izohlanadi. Xuddi shu sababga ko'ra ham, 1917-yilda imperiya hukumati o'zining harbiy komissarini tayinlashga majbur bo'ldi. Bu harbiy komissar maoshi uchun har yili xazinadan 156 ming rubl ajratilgan.[12]

Shunday qilib, mahalliy aholi nafaqat Buxoro amirligining ko'p sonli saroy va mahalliy amaldorlari maoshlarini o'z gardanlariga olganlar, balki Rossiya imperiyasining o'lkadagi mamuriyati vakillari uchun ham soliq yukini ko'tarishga majbur bo'lgan.

Buxoro amirligida yana bir katta xarajatli soha harbiy qo'shin saqlash xarajatlari bo'lib, ular faoliyatiga ko'ra nafaqat harbiy tajribasiz, balki foydasiz ham edi, chunki bu xonliklarning xavfsizligi rus qo'shini tomonidan himoya qilingan. 1892-yil Harbiy vazirligining taklifi bilan Buxoro amirligi qo'shini 10 ming kishiga qisqartirildi. Buxoro amirligi harbiy qo'shinining qisqarishi bilan uni saqlash xarajatlari ham 1880-yildagi 2317980 rubldan, 1907-yilda 1 million 100 ming rublgacha kamaydi.[13] Biroq, barcha navkarlar ham nafaqa olishmagan. Ularning aksariyati maosh evaziga yer solig'i va turli ishlab berish majburiyatlaridan ozod qilingan.

Buxoro amirligida 1910-yildan 1917-yilgacha 8 yil davomida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun xazinadan 32 ming rubl, ya'ni har yili o'rtacha 4 ming rubl mablag' ajratilgan. Amirlikda 1910-1917-yillarda tibbiyot muassasalarini qurilishi va faoliyati uchun 341,4 ming rubl ajratilgan. Katta miqdordagi mablag'lar asosan Qarshi, Shahrisabz, Dushanbe shaharlarida shifoxonalar qurish uchun ajratilgan.[14]

1909 va 1911-yillarda D.N.Logofetning "Huquqsizlik mamlakatida" (Buxoro xonligi va uning hozirgi holati) va "Buxoro xonligi Rus protektorati ostida" kitoblari nashr etilib, ularda Buxoro amirligida moliyaviy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish haqida bir qancha tavsiyaviy fikrlar berilgan.

1) Kelajakda Turkiston general-gubernatorligining soliq tizimi joriy qilinishini hisobga olgan holda, xiroj soliq tizimidan tanobga o'tish;

2) Davlat budjetini boshqarish va Buxoro hukumati faoliyatini ustidan nazorat o'rnatish;

3) Buxoro armiyasini tarqatish va ortiqcha mablag'larni sog'liqni saqlash, ta'lim, irrigatsiya va yo'l qurilishini moliyalashtirishga yo'naltirish;

4) Bekliklar o'rtasidagi chegaralarda ichki bojxonalarni tugatish;

5) Xizmatdagi mansabdor shaxslarning shtat jadvali va maoshlarini aniq belgilab qo'yish.[15]

D.N.Logofet tomonidan ishlab chiqilgan Buxoro amirligi budjeti loyihasi rus hukumati uchun juda qiziqarli bo'lib, undagi tavsiyalar asosida nafaqat markaziy va mahalliy hokimiyat organlari, turli madaniy va xo'jalik muassasalari, balki amirlik hududida joylashgan rus qo'shinlarini ham mablag' bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Logofet tomonidan tavsiya etilgan loyihada Buxoro amirligi daromadining umumiy miqdori 8 million, xarajatlari 6,4 million rubl deb ko'rsatilgan. Xarajatlardan tashqari sof daromad 1,5 million rublni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Budjetning xarajat qismi quyidagicha taqdim etilgan:

boshqaruv apparatini ta'minlash xarajatlari (ma'muriy boshqaruv va sud, rus qo'shinlari, otliq qo'shinlar, amirning xarajatlari, xizmatdagi amaldorlarga nafaqalar, aksiz nazorati, yer ishlari komissiyalari, cherkovlar, masjidlar uchun) - 5165,6 ming rubl. (80,6 foiz);

xo'jalik xarajatlari (qishloq xo'jaligi va sug'orishni boshqarish, chigirtkalarga qarshi kurashni tashkil etish, yo'l qurilishi, pochta-telegraf aloqasi) 809,5 ming rubl. (12,6 foiz). madaniy xarajatlar (tibbiy xizmat ko'rsatish ta'lim muassasalari) - 443,0 ming rubl. (6,8 foiz).

Budjetning asosiy ulushini (80,6 foiz) boshqaruv apparatini ta'minlash xarajatlari, shu jumladan 50 foiz ga yaqinini harbiy xarajatlar tashkil etgan.[16]

Buxoro amirligi budjeti loyihasi xarajatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, byudjet amir boshqaruvi saqlanib qolishi hisobga olingan holda Turkiston general-gubernatorligining daromadlari va xarajatlari bo'linishiga o'xshash tarzda tuzilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ikkala xonlikda paxtachilik, qorako'lchilik, pillachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari nisbatan tez rivojlangan. Birinchi jahon urushi arafasida Buxoro amirligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlash va xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish bo'yicha 60 ga yaqin korxona mavjud edi. Xiva xonligida

1916-yilda 36 paxta tozalash zavodi, 4 ta terini qayta ishlash zavodi va 4 ta beda tozalash zavodi mavjud edi. Sanoat korxonalarining aksariyati Rossiyaning Markaziy qismidagi savdo va sanoat firmalari egalari tegishli edi.[17]

Xonliklar iqtisodiyotini rivojlantirishda temir yo'llarning qurilishi, Rossiya -Buxoro va Rossiya-Xiva savdosining kengayishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1865-yildan 1913-yillgacha Buxoroning Rossiyaga eksport qilgan mahsulotlar tannarxi 3306 ming rubldan 31255 ming rublgacha, import mahsulotlari esa, 1913 ming rubldan 35344 ming rublgacha ko'paydi. Xiva xonligining Rossiya bilan savdo aylanmasi 1872-yildagi 306,9 ming rubldan 1913-yilda 5 million rublgacha oshdi.[18] Ammo, ikki xonlikning asrlar davomida shakllangan soliq tizimi pul-tovar munosabatlarning rivojlanishiga xususan, Rossiya-Buxoro va Rossiya-Xiva savdosining rivojlanishiga asosiy sababchi edi. Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi tomonidan maxfiy ravishda olingan ma'lumotlarga ko'ra, 1909-yilda davlat xazinasiga butun amirlikdan 7349,5 ming rubl, shu jumladan 4909,5 ming rubl miqdoridagi yer solig'i yig'ib olingan.[19]

Agronom Ponyatovskiyning hisob-kitoblariga ko'ra, 1911-1912-yillarda, birgina paxta solig'idan tushgan aminona solig'i daromadi 225 ming rublni, hammasi bo'lib esa 1,5 million rublni tashkil etgan. Aminona solig'i rus savdo firmalarining daromadlarini va ularning Buxorodagi hind savdosi bilan raqobatini ancha cheklab qo'ygan.[20] Shuning uchun ham chor hukumati aminona solig'ini bekor qilish borasida Buxoro amirligi bilan bir qator muzokaralar olib borgan. Aminona savdo karvonlaridan olinadigan boj solig'i bo'lib, u har bir bekklik hududidan o'tayotgan savdogardan olingan. Misol uchun, Toshkent shahrida yashovchi savdogar Shokirqori Roziqboevning ma'lumotlarida, Afg'onistondan 300 bosh va Buxoro bozorlaridan 1600 bosh qo'y sotib olgani keltirilgan. Savdogar boj uchun Ko'lobda - 750 rubl, Qarajar qishlog'ida - 61 rubl 50 tiyin, Sag'irberdida 30 rubl, Tulvorda - 46 rubl 50 tiyin, hammasi bo'lib esa 850 rubl to'lagan, ammo unga berilgan chek qog'ozida faqat 100 rubl ko'rsatilgan.[21]

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligining moliya tizimi asosan agrar jamiyatga xos bo'lgan an'anaviy shaklda faoliyat yuritgan. Davlat

daromadlari asosan yerdan tushadigan xiroj, savdo-hunarmandchilikdan olinadigan bojlar, diniy va vaqtinchalik soliqlardan tashkil topgan.	Moliyaviy mablag‘lar esa asosan ma‘muriy idoralar, harbiy kuchlari va diniy muassasalarini saqlashga yo‘naltirilgan.
---	--

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Губаревич-Радобильский. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – С. 147.
2. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом: Т. 1-2/2. – Санкт-Петербург, 1911. – С. 19
3. Sadrididdin Ayniy. Asarlar, 1-jild. – Toshkent: Uzadabiynashr, 1963. – B. 195
4. O‘z MA, I-2-fond, 1-ro‘yxat, 251-yig‘ma jild, 1-varaq
5. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 441-yig‘ma jild, 2-varaq
6. O‘z MA, I-2-fond, 1-ro‘yxat, 400-yig‘ma jild, 76-varaq.
7. Амир Абдулахад. Петербург сафар кундалиги. Форс тилидан таржима, сўзбоши, изохлар ва кўрсаткичлар Санжар Фуломовники. – Тошкент: Фан, 2024. – B. 109.
8. O‘z MA, I-2-fond, 1-ro‘yxat, 93-yig‘ma jild, 13-varaq.
9. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 364-yig‘ma jild, 1-varaq.
10. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 1230-yig‘ma jild, 52-varaq.
11. В.В.Бартольд. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград, 1927. – С. 243.
12. Ковалев П. Мобилизация и тыловых работы населения Туркестана и восстание 1916 года. Часть 2. – Ташкент, 1959. – С. 192.
13. Туркестанский сборник, Том. 247, 1882. – С. 336.
14. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 364-yig‘ma jild, 1-varaq.
15. O‘z MA, I-1-fond, 27-ro‘yxat, 1196-yig‘ma jild, 27-varaq.
16. O‘z MA, I-1-fond, 27-ro‘yxat, 1196-yig‘ma jild, 28-varaq.
17. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 441-yig‘ma jild, 1-varaq.
18. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 441-yig‘ma jild, 1-varaq orqa tomoni.
19. O‘z MA, I-2-fond, 1-ro‘yxat, 251-yig‘ma jild, 1-varaq.
20. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 117-yig‘ma jild, 22-varaq.
21. O‘z MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 397-yig‘ma jild, 17-varaq.